

# "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi v.v.b Y. Korjikovning murojaati

// 15 December 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisi-vvb-murojaati>

## **Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!**

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy va ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan ham aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qabul qilinayotgan yangi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan turli tadbirlar tashkil etilmoqda.

Korrupsiya siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli hodisa bo'lib, mansab mavqeidan shaxsiy manfaatlar uchun qasddan foydalanishda ifodalanadi. Bu zamonaviy dunyoda turgan global muammolardan biridir. Bu islohotlar g'oyasini obro'sizlantiradi, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 2017-yil 4-yanvarda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning mustahkam huquqiy asosini yaratdi.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda korrupsiya turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: pora olish, o'zlashtirish, firibgarlik, tovlamachilik, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, noqonuniy xayriya qilish. Lekin u qanday "shakllarni" egallamasin, uning mohiyati va oqibatlari ham jamiyat uchun ham, butun jahon iqtisodiyoti uchun ham og'ir va zararli bo'lib qolmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurash natija berishi uchun barcha odamlarning xohish-istaklari zarur.

Korrupsiya bor joyda rivojlanish bo'lmaydi, chunki korrupsiya oshkoralikni buzadi. O'z navbatida, oshkoralikning yo'qligi jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi, yolg'onning gullab-yashnashiga olib keladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimida korrupsiyaning mavjudligi natijasida jamiyatning munosib a'zosi bo'lmoqchi bo'lgan ko'plab yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchi asta-sekin yo'qolib, bilim olishga ishtiyoqi pasayib, pirovardida, o'z-o'zini tarbiyalash istagi yo'qolib, yoshlar mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar bo'la olmaydi, hayotda o'z o'rnini topmaydi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, tegishli qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ularning amalga oshirilishini ta'minlashda birgalikdagi harakat qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bugungi kunda "O'zkimyosanoat AJning bevosita rahbariyati va jamoati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida murosasiz munosabat va kurash olib borilmoqda. Jumladan, Jamiyat xodimlarining "Korrupsiyaga qarshi siyosat" "Odob-axloq kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish" nizomi kabi ichki me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy amal qilishlari ta'minlangan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni istardimki, hozirgi kunda Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ochiqlikni ta'minlash barcha sohalarda ish sifatini oshirish, yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirishni taklif qilmoqchiman. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, har bir sohani korrupsiyadan tozalashimiz kerak.

**"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati**

**boshqaruvi raisi v.v.b Y. Korjikov**